

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000


Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина НуриТдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavluda Bатыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



UDK: 8

Achilova Ozoda FarxodovnaFilologiya fanlari doktori,
Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand**YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA
TAYANILADIGAN OMILLAR** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18733968>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada dialogik nutq jarayonida imperativ mazmunda faollashuvchi maqollar matnini o‘zbek tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning o‘zbek tilidagi ekvivalenti bilan uyg‘unlashtirishda tayaniladigan omillarga oid kalimalarni taqdim etishga harakat qilamiz.

Jamiyatda kishilarning ikki yoki undan ortiq xorijiy tillarda muloqotga kirishish jarayonida bevosita muloqot matnida voqelanuvchi matn mazmuni va matndan anglashiladigan nutq intentsiyasini jo‘yali tarjima qilish va to‘g‘ri idrok etish uchun muloqot ishtirokchilaridan katta mahorat talab etiladi. Dialogik nutqda harakatga undovchi nutqiy aktlar streatipi sifatida faollashish xususiyatiga ega bo‘lgan maqollarni tarjima qilish uchun tarjimondan yetarlicha tajriba va yuqori darajada til bilish qobilayti talab qilinadi.

Kalit so‘zlar: til, jamiyat, mahorat, streatip, tarjima, nutq, muloqot, maqol, imperativ, ekvivalent.

Ачилова Озода Фарходовна,доктор филологических наук,
Самаркандский государственный институт
иностранных языков, Самарканд.**ФАКТОРЫ, УЧИТЫВАЕМЫЕ ПРИ СРАВНЕНИИ ЯПОНСКИХ ПОСЛОВИЦ В
УЗБЕКИСТАНЕ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье мы попытаемся представить некоторые проблемы, возникающие при переводе текста пословиц, функционирующих в императивном содержании в процессе диалогической речи, на узбекский язык, и факторы, на которые опираются при их согласовании с узбекскими эквивалентами.

В процессе общения людей на двух и более иностранных языках для правильного перевода содержания текста и речевого намерения, непосредственно выраженного в тексте разговора, от участников разговора требуется большое мастерство. Для перевода пословиц, обладающих свойством функционировать как стереотипы речевых актов, призывающих к действию в диалогической речи, от переводчика требуется достаточный опыт и высокий уровень владения языком.

Ключевые слова: язык, общество, мастерство, стереотип, перевод, речь, коммуникация, пословица, императив, эквивалент.

Achilova Ozoda Farkhodovna
Doctor of Philology, Samarkand State
Institute of Foreign Languages, Samarkand.

FACTORS INVOLVING THE TRANSLATION OF JAPANESE ARTICLES IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

ABSTRACT

In this article, we will try to present some of the problems encountered in translating the text of proverbs that function in imperative content in the process of dialogic speech into Uzbek and the factors that are relied on in harmonizing them with their Uzbek equivalents.

In the process of people entering into communication in two or more foreign languages, in order to correctly translate and correctly perceive the content of the text and the speech intention that is directly expressed in the text of the conversation, great skill is required from the participants of the conversation. In order to translate proverbs that have the property of functioning as stereotypes of speech acts that call for action in dialogic speech, the translator is required to have sufficient experience and a high level of language proficiency.

Key words: language, society, skill, stereotype, translation, speech, communication, proverb, imperative, equivalent.

Kirish. Badiiy tarjimaning sifati va saviyasini belgilashda ekvivalentlik va adekvatlik muhim o‘rin tutadi. Bunda tillarning o‘zaro yaqinligi, bir oilaga mansubligi hisobga olinishi kerak. Chunki bu yuzaga keladigan muammolarning asl sababini aniqlashga yordam beradi. Ko‘p hollarda, maqollarni tarjima qilish jarayonida zarur bo‘ladigan tushuncha va qoidalar odatiy nutq matni tarjima talablari bilan deyarli bir xillikka ega bo‘lsa-da, jumllarning qisqa hajmda, ammo teran va sermazmun birliklar vositasida voqelanishi maqollarning asosiy xususiyatlarini tashkil etadi.

O‘zbek va yapon tillarida maqollarni tarjima qilish jarayonida maqollar matnida yashiringan madaniy qadriyatlar va uning ikkala mamlakat madaniyati bilan qay darajada bog‘liqligi kabi masalalarni o‘rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar tagili va metodologiyasi. Har qanday matnni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilishdan maqsad jumla tarkibidagi unsurlarning mazmunan o‘zga tildagi mos ekvivalentini o‘rinli qo‘llagan holda tabiiy tarjima natijasiga erishishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun, avvalo, har bil til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarjima texnikasi va matn mazmuni o‘zgarishiga bevosita ta‘sir o‘tkazuvchi unsurlardan chetlanish tartiblariga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Nutqda tarjimaning nafis va tabiiy holatda oydinlashishi tarjimonning mahorati va u tanlagan tarjima usullaridan muvaffaqiyatli foydalanishi bilan izohlanadi. Biroq har qanday birliklar ham tarjima tilida aniq muqobilini topa olmasligi tabiiy.

Tillar orasidagi farqlar, odatda, madaniyatlar orasidagi farqlarga asoslanadi. Mazkur tafovutlar tilning leksik va frazeologik qatlamida ko‘zga tashlanadi, binobarin, tilning nominativ birliklari aksariyat hollarda nolisoniy omillar bilan bog‘langan bo‘ladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi.

Ayonki, bugungi kunda ko‘pchilik odamlar turli xil bepul tarjima saytlari va elektron tarjima ilovalaridan qiyinchiliklarsiz foydalanishga odatlanib ulgurgan. Bunday tarjima usuli nutq mazmunidagi nomutanosibliklar yoki so‘zlarning noo‘rin qo‘llanilishi kabi g‘aliz tarjima matnlarini hosil etishi noxushliklarni keltirib chiqarsa-da, bu usul kundalik muloqot matnida suhbatdosh nutqidan anglashiladigan umumiy mazmunni tushunish imkonini beradi. Biroq rasmiy nutq yoki badiiy asarlar hamda ayniqsa, qisqa va sermazmun maqollarni tarjima qilish jarayonlarida matn mazmunida aniqlik va ishonchlik asosiy shart hisoblanadi va bunday vaziyatlarda yuqorida qayd etilgan tarjima usullariga tayanish tavsiya etilmaydi.

Natijalar. Odatda, erkin birikmalardagi soʻzlar nutq jarayonida majoziy maʼnoda voqelanishi, tabiiyki, tarjima jarayonida oʻziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Aksincha, erkin birikmalar maqollardan farqli holda tarjima jarayonida ayrim chalkashliklardan mustasnodir. Xususan, yapon maqollarining, odatda, qisqa va yakuniga yetmagan jumlar koʻrinishi kabi bir nechta ifoda usullari mavjud boʻlib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi.

Yapon maqollarining oʻziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, ayrim maqollar struktur jihatdan hech qanday grammatik unsurlar yoki gap tarkibida shaxs va songa ishora qiluvchi birorta belgini uchratib boʻlmaydi. Bu turdagi maqollarni tarjima qilishda oʻzbek tili meʼyorlari va talablari asosida matnni semantik jihatdan uygʻunlashtirish oʻrinli boʻladi. Masalan, quyidagi toʻrt iyeroglif (belgi)dan tarkib topgan qisqa maqolga eʼtibor qaratamiz: 三日坊主。[Mikka bouzu] Uch kun rohib.

Toʻrt iyeroglifdan tarkib topgan ushbu maqol oʻta qisqa jumla koʻrinishida ifodalangan boʻlsa-da, oʻzbek tilida muqobil tarjimasini topishda, avvalo, uning teran mazmunini toʻkis anglash muhim hisoblanadi. Ushbu maqol rohiblikni tanlab, uning qatʼi amallari va talablariga toqat qila olmasdan atigi uch kun oʻtgach, yana dunyoviy lazatlarga qaytgan kishini keskin taʼqib qilishga va uning misolida xalqni bunday nojoiz va inson uchun uyatli amallarni bajarmaslikka botinan undashga qaratilgan maqollardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolning oʻzbek tilidagi muqobil varianti sifatida Besabrning nafsi shoshar, tusagani kuzda pishar yoki Sabr etgan yetar murodga, besabr qolar uyatga kabi maqollar bilan ifodalash mumkin.

Maqollarni bir tildan ikkinchi tilga soʻzma-soʻz tarjima qilish joiz boʻlmaydigan vaziyatlar tez-tez uchraydi va ushbu holat har bir til meʼyorlari asosida xarakterlanadi. Xususan, yuqorida tahlilga tortilgan maqolni yapon tilidan oʻzbek tilga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish joiz emas. Ushbu maqol tarkibida tilga olingan 坊主 [bouzu] (rohib) soʻzi oʻzbek tili uchun yod tushuncha boʻlib, uning ekvivalenti sifatida “besabr shaxs” iborasiga tayanilgan va bu har ikkala tildagi maqollarni semantik xususiyatlarini oydinlashtirishga hissa qoʻshgan. Aksincha, oʻzbek tilidagi maqollarni yapon tiliga tarjima qilish jarayonida esa yapon tili meʼyorlari asosida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Erkin birikmalar nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan boʻlsak, oʻzbek va yapon tillarida gapning struktur xususiyatlari va jumla tarkibida ishtirok etadigan hamda unga semantik jilo berishga xizmat qilishda faol boʻlgan qoʻshimchalarning qoʻllanilishida uygʻunlikni kuzatish mumkin.

Oʻzbek va yapon tilining tabiati va til meʼyorlari hamda gapning struktur xususiyatlari va grammatik konstruksiyalarning shaklan uygʻunligi, oʻz navbatida, ikkala tilda ham erkin birikmalarni tarjima qilish jarayonida deyarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi. Ammo bu holat ayrim maqollar va iboralarni tarjima qilish jarayonida istisnoliklarga ega. Masalan, yapon tilidagi 「隣の芝生は青い」 [Tonari no shibafu wa aoi] Qoʻshning maysazori koʻm-koʻk maqoli oʻzbek tilida Qoʻshniga qoʻshning tovugʻi koʻrkli koʻrinar maqoli bilan maʼnodosh sifatida olinganida, ikkala xalq tafakkuri va til xususiyatlaridan kelib chiqib, jumla tarkibidagi soʻzlarning umuman boshqa bir soʻz bilan oʻrin almashgan holda izohlanishini kuzatish mumkin. Shuningdek, yapon tilida struktur jihatdan gap tarkibida 「見える」 [mieru] “koʻrinmoq” feʼlining ishtirok etmasligi mazkur til meʼyorlariga muvofiq boʻlsa-da, oʻzbek tilida bu iboraning ishtirok etmasligi gap mazmunida gʻalizliklar paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Oʻz navbatida, har ikkala tildagi maqollarda nutq intensiyasi tinglovchini oʻz tasarrufidagi borliqni qadrlash va baxillikdan tiyilishga undashga ishora etadi.

Tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, yapon maqollarini oʻzbek tiliga oʻgirish jarayonida bir qancha usullardan foydalanishni tavsiya sifatida taqdim etish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

1. Imperativ mazmundagi feʼllar ishtirokida ifodalanadigan ayrim yapon maqollarini oʻzbek tilida aksariyat hollarda oʻzgarishsiz tarjima qilish mumkin: 二兎を追う者は一兎をも得ず。[Ni to wo oumono ha itto omo ezu].

Ikki quyovni quvlagan bittasini ham tuta olmas.

Oʻzbek tilida:

A) Ikki quyonni quvlagan birini ham tutolmas. (Yapon tili bilan muqobil).

B) Bir kesak bilan ikki chumchuqni urib boʻlmas.

2. Harakatga undash mazmunida voqelangan boʻlishiga qaramasdan, feʼlining hech qanday imperativ shakli ishtirokisiz ifodalangan yapon maqollari, odatda, oʻzbek tilida feʼlli birikmalar

ishtirokida izohlanishi va shu usulda tarjma qilinishi mumkin. Masalan, 「右の耳から左の耳。」 [Migino mimi kara hidarino mimi] maqolini soʻzma-soʻz tarjima qilganimizda Oʻng quloqdan chap quloqdan tarzida gʻalib mazmundagi oʻzbek tiliga tushunarsiz tarjima hosil boʻladi. Ammo bunday holatda oʻzbek tili meʼyorlariga amal qilgan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu maqolni Oʻng quloqdan kirib, chap quloqdan chiqar tarzida, yaʼni feʼlli birikmalar ishtirokida tarjima qilish tavsiya etiladi.

3. Yapon maqollari tarkibida ishtirok etayotgan ayrim iboralar va jumlar oʻzbek tilida bir qancha ekvivalentlar bilan oʻrin almashinishi mumkin. Albatta, bunday hollarda soʻzlar yoki jumlar soʻzma-soʻz muqobillashtirilmasa-da, maqolda ishora qilinayotgan holat butun bir yaxlit holda muqobillashtirilishi kuzatiladi:猫に小判。[Neko ni koban]. Mushukka tillo tanga (befoyda).

Oʻzbek tilida:

- a. Gavhar qadrini koʻr bilmas.
- b. Tiyin qadrini bilmagan, soʻm qadrini bilmas.
- c. Zar qadrini zargar bilar, chilangar neni bilar.

4. Yapon tilida maqollar asosan ierogliflar yordamida qisqa va toʻliq boʻlmagan jumlar koʻrinishida ifodalanadi. Ushbu xususiyat oʻzbek tili meʼyorlariga mos kelmasligi va bunday jumalarni oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilish gap mazmuniga putr yetkazishi tabiiy holat. Shuning uchun, bu turdagi maqollarni oʻzbek tiliga oʻgʻirishda ekstralingvistik omillar taʼsirida jumla tarkibi stilistik jihatdan oʻz qiyofasini oʻzgartiradi:耳学問。[Mimi gakumon]. Quloq ilmi.

Oʻzbek tilida: Izlanib emas, tinglab oʻrgan.

Xulosa. Demak, maqollarni toʻgʻri tarjima qilish va ularning asl maʼnosini ochib berish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Binobarin, maqollarda ularning tarkibida ishtirok etayotgan har bir soʻzdan anglashilayotgan maʼnoning asl va majoziy turlarini ajratib olish talab etiladi.

Eng ahamiyatli shundaki, tarjima jarayonida har bir til meʼyorlari va talablariga amal qilishni yodda tutish lozim. Zero, tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari oʻrtasidagi semantik aloqalar, grammatik meʼyor hamda tarjima tilidagi soʻz birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi. Matnni tarjima qilishda tarjimon tasvirni asliyat tilida saqlashga harakat qiladi va bunday holatlarda qoʻshimcha izohlar kiritishga ehtiyoj sezilmaydi. Maqollarda majoziy maʼnoni anglash va uni ikkinchi bir tilda izohlashning eng qulay va oson usullaridan biri bu matndagi majoziy maʼnoni maʼlum bir obyekt yoki voqea hodisa bilan uygʻunlashtirgan holda izohlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIOTLAR ROYHATI:

1. Achilova O.F. Yapon va oʻzbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 217 b.
2. Achilova O.F. The factors that ensure the transition of the permissible meaning in dialogical speech. *International Journal of Early Childhood Special Education* 14 (7)
3. Usmanova Sh. *Lingvokulturologiya*. – Toshkent, 2019. – B 83 .
4. Ачилова О. Ф. Имплицит ва эксплицит прохибитивлик ёхуд пермиссивликнинг диалогик нутқда намоён бўлиши (япон тили мисолида) *Academic research in educational sciences* 3 (6), 161-164,
5. Ачилова О. Ф. Рухсат мазмуннинг диалогик нутқда воқеланишини таъминловчи омиллар. *Science and innovation* 1 (JSSR), 83-86
6. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимые в переводе, библиотека лингвиста. – М.: Р.Валент, 2012. – С.
7. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. – М., 2006. – С.181. 38;
8. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1998 – С. 134.
9. Левицкая Т.Р. Проблемы перевода. – М.: Международные отношения, 2000. – С.3.
10. Хомидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент. – 2021. – Б.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000